

**JUMANIYAZOVA Moxira Shuxrat qizi**  
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar*  
*kafedrası o'qituvchisi*

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILALARDA REPRODUKTIV SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHGA OID IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА УКРЕПЛЕНИЕ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ В СЕМЬЯХ

## SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS ON STRENGTHENING REPRODUCTIVE HEALTH IN FAMILIES

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson uchun juda muhim hisoblangan salomatlik ne'mati hamda reproduktiv salomatlik to'g'risida so'z boradi. Bilamizki, reproduktiv salomatlik – bu farzand ko'ra olish qobiliyatini o'zida mujassam etuvchi, uning vujudga kelishida ishtirok etuvchi erkak va ayolning jismoniy, ruhiy salomatligi va ijtimoiy farovonligi holatidir. Zamonaviy hayotimizda yosh oilalarda yuzaga kelayotgan muammolarning aksariyati er-xotinlarning turli reproduktiv kasalliklarga chalinganligi natijasida ham yuzaga kelmoqda. Bu kabi masalalarda tarixiy tajribani ham o'rganish, ularning reproduktiv salomatlik borasidagi qarashlarini tahlil etish ham bugunimiz uchun anchayin dolzarbdir.

**Kalit so'zlar:** oilaviy munosabatalar, salomatlik, reproduktiv salomatlik, Sharq mutafakkirlari, islom ma'rifati, er-xotin munosabatalari, farzand tarbiyasi.

**Аннотация.** В этой статье речь пойдет о здоровье, которое является бесценным даром для человека, а также о репродуктивном здоровье. Как известно, репродуктивное здоровье – это состояние физического, психического здоровья и социального благополучия мужчины и женщины, которое выражается в их способности иметь детей и участвовать в их рождении. В современном мире большинство проблем, возникающих в молодых семьях, связаны с тем, что супруги страдают

различными репродуктивными заболеваниями. В связи с этим изучение исторического опыта, анализ взглядов на репродуктивное здоровье в прошлом также является весьма актуальным для нашего времени.

**Ключевые слова:** семейные отношения, здоровье, репродуктивное здоровье, восточные мыслители, исламское просвещение, брачные отношения, воспитание детей.

**Annotation.** This article talks about health benefits and reproductive health that are considered very important for humans. We know that reproductive health is a state of physical, mental health and social well-being of men and women who embody the ability to bear children and participate in its creation. In particular, most of the problems that arise in young families in our modern life are caused by couples suffering from various reproductive diseases. Studying the historical experience in such matters and analyzing their views on reproductive health is very relevant for us today.

**Key words:** family relations, health, reproductive health, Eastern thinkers, Islamic enlightenment, marital relations, child upbringing.

## KIRISH

Salomatlik – bu inson hayotining eng muhim ne'matlaridan biridir. Inson o'zining jismoniy va ruhiy salomatligiga erishishi orqali ijtimoiy hayotda bevosita faol ishtirokini ta'minlaydi. "Salomatlik - har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo'lib kelmoqda. Inson mustahkam salomatlikka ega bo'lgandagina baxtli bo'lib yashashi mumkin.

Har bir millatga, har bir mamlakat uchun muqaddas bo'lgan tarixiy, madaniy, milliy qadriyatlarning barchasini jismoniy va ruhiy sog'lom insongina yarata oladi. Shunday ekan "salomatlik - mavjud barcha qadriyatlar orasida eng oliysi sifatida qadrlanmog'i lozim. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag' evaziga sotib olib bo'lmaydi. Har bir shaxs o'zining yurish-turishi uchun mas'ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi, har bir kishi o'z salomatligining quruvchisi bo'lib maydonga chiqadi, uni shunday qurish kerakki, u hech qachon buzilmasin, har qanday zararli ta'sirlarga bardosh bera olsun. Buning uchun har bir kishi mustahkam salomatlikka qanday erishish yo'lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to'laqonli salomatlikning yagona yo'li sog'lom

turmush tarzi ekanligini anglab yetishi lozim”[7, 3].

### ASOSIY QISM

Umuman inson jismoniy hamda ma'naviy sog'lomlikka qanday erishadi? degan savolga javob qidirar ekanmiz, albatta shaxs jismoniy va ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi dastlabki bilimlarni oilada shakllantirishi shubxasizdir. Oilaning ma'nan va jismonan yetukligi ham bevosita oilani tashkil etuvchi a'zolarining tan sihatliligiga, ma'naviy sog'lomligiga asoslanadi. Oila – mustahkam qo'rg'on, unda er-xotin munosabatlari, farzandlarning kamolga yetishi va jamiyatning eng muhim mexanizmi rivojlanadi. Bugungi kunda oilalarda tibbiy madaniyatning tarkib topishi va shakllanishi jamiyatda qadr topgan ko'plab moddiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslanadi. Aynan, oilalarda reproduktiv salomatlik to'g'risidagi ilm hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, oilaning kelajakdagi farovonligi va barqarorligi bevosita oila a'zolarining reproduktiv salomatligiga bog'liqdir. Shu o'rinda, reproduktiv salomatlik tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. “Reproduktiv salomatlik – bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Ilk bora reproduktiv salomatlik iborasi 1994-yil Qohirada bo'lib o'tgan aholi va rivojlanish masalalariga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada tilga olingan va quyidagicha izoh berilgan: inson huquqlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish, aholining asosiy ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, qashshoqlik bilan kurashishda harakatlarni birlashtirish, kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilish masalalari o'z aksini topgan [6, 144].

Quyidagi manbada ham tushunchaga umumiy tarif berilgan: “Reproduktiv salomatlik: reproductio - qayta ishlab chiqish. Insonning tur sifatida o'zini saqlab qolish qobiliyati”[7, 240]. Ushbu ta'rifda asosiy mazmun insonning o'ziga xos xususiyati va qobiliyati bu uning reproduktiv salomatligi ekaniga e'tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Reproduktiv salomatlik hozirgi kunda bevosita Xalqaro huquq tomonidan rasman tan olingan va inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda ro'yhatga olingan hisoblanadi. Reproduktiv salomatlikning ilmiy jihatdan asosi bugun paydo bo'lgan emas, u qadimdan G'arb va Sharq

olimlarining ijtimoiy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, oila va uning ijtimoiy ahamiyatini yoritgan bir guruh mutafakkirlar ijodida ham buni anglash mumkin. Buni Sharq sivilizatsion qarashlarida quyidagicha tahlil etish mumkin.

Sharq mutafakkirlari ijodida shaxs salomatligiga oid, ayniqsa oilalarda erkak va ayol uchun juda muhim bo'lgan reproduktiv salomatlik bo'yicha ko'plab asarlar aks etadi. Ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ko'plab qomusiy allomalar ijod etishgan. Ularning qomusliyligi deyarli barcha sohalarni qamrovli tadqiq etganliklaridan bilish mumkin. Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Al Farg'oniy, Imom At-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi hadis ilmi ulamolari va boshqa mutafakkir allomalari shular jumlasidandir.

Misol tariqasida Abu Rayxon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita oqila, aqli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida urg'u beradi. O'zining “Mineralogiya” asarida oila quriyotgan qizlarga ota-onaning nasixatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlab yozadi: “Ey qizim! Sen turmushga chiqib o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u osmon bo'ladi. Uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oliyjanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi, u ham o'z mehru shafqati bilan seni hushnud etadi. Erning sendan faqat yumshoq va Shirin so'zlarigina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma”[4, 22].

Shu o'rinda reproduktiv salomatlik zamirida insonning har tomonlama sog'lomligini tushunish mumkin. Aqlan, jismonan va ma'nan yetuklik – bu reproduktiv salomatlik asosidir. Abu Rayxon Beruniy ham oilalarda ayollarning ham ma'nan ham jismonan yetukligini yuqoridagi tamoyillarga ko'ra tavsif etganlar. Ulug' alloma Abu ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar masalalariga oid qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning “Tadbiri manozil” asarida ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi haqida so'z boradi. Ushbu asarda ayollarning quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi:

Bilimli bo'lishi;  
E'tiqodli bo'lishi;  
Uyatchan, sharm-hayoli bo'lsin;  
Tabiatan jasur bo'lsin;  
Erini qattiq sevsin;

Tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylasin;  
 Ezma bo'lmasin;  
 O'z eriga bo'sunsin;  
 To'g'ri, kamtar va farosatli bo'lsin;  
 Hech qachon o'z sha'niga dog' tushirmasin;  
 Eri bilan ehtiyot bo'lib, uning hurmatini joyiga  
 qo'yib, xushmuomila bo'lishi shart;  
 O'z vazifasini va burchini yaxshi bilsin;  
 Xotin oila xo'jaligidagi narsalardan to'g'ri,  
 tejab foydalanishni bilsin;  
 O'z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi  
 kamchiliklarni yo'qotsin;[4, 22].

Bundan tashqari alloma inson salomatligiga oid yana ko'plab tadqiqotlar olib brogan, Ular jumlasiga, "Sog'liqni saqlash ilmi", "Sog'lom turmush tarzi", "Sog'lom avlod", "Ruhiiy salomatlik", "Sog'lom tabiiy muhit" konsepsiyalarini kiritish mumkin. Inson salomatligi faqat tana ichki muhitiga bog'liq bo'lmay, balki atrof-muhit, xilma-xil ekologik omillar, ma'naviy ta'sirlarga ham bog'liqligi alloma nazaridan chetda qolmagan. Ibn Sino har bir bemorni davolashdan oldin uni diqqat bilan o'rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o'ta muhimligini uqtirgan. Uning bu fikrlari psixogigiya fani vazifalariga o'xshab ketadi. Ibn Sino asarlarida psixoprofilaktikaga oid ishlarni ham ko'p uchratamiz. Masalan, mutafakkir kasalliklarning oldini olishda tarbiyaga alohida urg'u bergan. "Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak", degan edi Ibn Sino. Shuningdek, u bolani qo'rqq, g'amgin yoki juda erka qilib tarbiyalamaslik, ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o'sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehni o'tkir, tanasi sog'lom o'sishini ta'minlashini ta'kidlab o'tgan.

Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" asarida ham er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi. Asarda muallif kelin tanlash masalasi bo'yicha quyidagicha maslahat beradi: "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan. Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin. Yuzy chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'l-u atvori yaxshi bo'lsa, u

to'kis bo'ladi. Fe'l-u atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyli xulqdir, buni bilgan biladi. Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma (darxol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali aqli xotin topilsa – farosat, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi"[5, 192].

Xususan, Islom falsafasining ustunlaridan biri Abu Homid G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarida ham insonning botiniy hislatlariga to'xtalinishligi, unda asosan Qur'oni Karim va Hadislardan dalil keltirib javob berilgani reproduktiv salomatlik masalasi biz bilgandek faqat g'arb tomonidan kiritilgan tushuncha emas, aslida sharqda, aynan Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib borgan ko'plab allomalarning ilmiy merosidan o'rin olgandir.

Imom G'azzoliyning yuqorida keltirilgan asarida quyidagi mulohazalar keltirilgan:

#### Fasl

#### Odam vujudidagi avsofi zamimalar - yomon sifatlar bayonida

Bas, odamlardan bir guruhi gumon qilibdurlarkim, Alloh odamni taom yemak va uyqulamoq va jimo' qilmoq, lazzat olmoq uchun yaratgandur deb. Bu mutlaqo noto'g'ri, buzuq, behuda xom xayoldir. Bu bilan hamma umrlarini bo'lmag'ur botil ishga sarf qilurlar. Ming afsus va nadomatlar bo'lsin! Endi bir guruhlar borki, gumon qilurlarkim, sababsiz o'zgalarga qahrg'azab qilib, baland ovozlar bilan jerkib, koyib, ulardan g'olib bo'lish uchun yaratilganmanderlar. Bu toifa ishlarga vaqtlarini, hattoki umrlarini sarf qilurlar. Ko'pchilik xalqlarda uchraydigan bu har ikki gumon xatodurki, yemak va jimo' qilmoq shahvat sababidindur. Bu ishlarning hammasi botil xayollardur. Yemak, ichmak va jimo' qilmak hayvonlarda ham bordur. To'rt oyoqli hayvonlarning yemagi odamning yemagidan to'laroqdur. Chumchuqning jimo' qilmog'i odamning jimo'qilmog'idan to'laroqdur. Bas, odam bulardin nechuk sharofatlik bo'lg'usidur?

G'oliblik va balandlik qilmoq g'azabning xohishidandurkim, bu darrandalarning sifatidir. Bas, odamga darranda va to'rt oyoqli hayvonlarga bergan sifatlar ham berilibdur. Endi bundin ham ziyoda kamoli sharofatni beribdurkim, bu aql ne'matidur. Bas, odam o'zini yaratgan Alloh azza va jallani shu aql-idrok bilan tanur. Alloh taoloning ajoyib va g'aroyib yaratish qudratlarini tafakkur bilan mushohada qilib, aql nuri birla o'zini g'azab ilkidin xalos qilur. Bu farishtalar sifatidandur. Bu

sifat hamma vahshiy hayvonlar sifatidan g'olibdur. Alloh ro'yi zamindagi barcha mavjudotlarni insonga musaxxar qildi - bo'yinsundirdi. Haq taolo kalomi majidida xabar beribdurki:

وَسَخَّرَ لَكُم مَّا فِي السَّمَاوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ جَمِيعًا مِنْهُ

*Oyatning tafsiri: Haq taolo sizlarga yer yuzidagi mavjudotlarning hammasini bo'ysundirdi. (Josiya, 13)*

Bas, odamning haqiqati ul nimarsadurki, kamoli va sharofati aning birla bordur, ya'ni aql birladur. Va o'zga sifatlar g'arib va oriyatdurki, aqlning madadi va chokarligi bilan amalga oshmasa. Bul dalil birla vaqtiki odam vafot qilsa, na g'azab qolur va na shahvat. Ammo javhari aqlkim, ravshan va nuroniy, Haq taoloning ma'rifati birla orasta bo'libdur, odamning rafiqi bo'lib, farishtai muqarrablar birla hazrati Haq subhonahu va taoloning dargohida bo'lgusidur.

فِي مَقْعَدٍ صِدْقٍ عِنْدَ مَلِكٍ مُّقْتَدِرٍ

*Ya'ni, (Ular) qudratli podshoh (Alloh)ning huzurida sadoqat maqomida bo'lurlar.*

*(Qamar, 55) [3, 25].*

Imom G'azzoliy o'z tahlillarida insondagi fizilogik va jinsiy ehtiyojlarini ochishga harakat qilganlar, ularning fikrlarida ham inson o'zining zohiriy ehtiyojlarini va botiniy olamini isloh etmog'i lozimligini ta'kidlab o'tadilar. Zohiriy va botiniy ehtiyojlar zamirida esa insonning fiziologik xohish-irodasi yotadi.

Umuman sharq mutafakkirlari oilaning ijtimoiy muhitini bevosita belgilashda ayollarning rolini yuksak darajaga ko'taradi.

Reproduktiv salomatlik bevosita oilaning kelgusida tug'iladigan farzandining qanday tarbiya topishida muhim ahamiyatga egadir. Agar inson o'zining jismoniy va ma'naviy yetukligiga e'tibor qaratmasa, u qoldiradigan avlod ham undan ham past darajada voyaga yetishi mumkin. Shuning uchun ham ma'naviy va jismoniy yetuklik bu – barkamol avlod uchun asos, poydevor hisoblanadi.

Buyuk sarkarda va siyosatchi Amir Temur ham mutafakkir sifatida e'tirof etilmasada, uning "Tuzuklar" da qoldirgan ijtimoiy-ma'naviy o'g'itlari shaxs tarbiyasida, salomatlik va yetuklik uchun ahamiyatli jihatlarga ega. Xususan, Amir Temur "Tuzuklar" da kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarim uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yeti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'ligini, jismoniy kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'ligi bilan

barcha qusurlardan holi bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim" [2, 144]

Buyuk alloma Alisher Navoiyning muhabbati, vafo, er-xotin munosabatlari, burchlari, burchlari, ayollar fazilati, ularning oiladagi tutgan o'rni haqidagi qarashlari beqiyosdir. "Mahbub ul-qulub" asarining "Uylanish va xotinlar to'g'risidagi" bobida mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa, ko'ngil yozig'i, xushmumoil bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi"[4, 23].

Sog'lom nasl qoldirish va uni barkamol qilib tarbiyalash har bir oilaning maqsadi sanaladi. Xususan, islomda ham jismoniy va ma'naviy barkamollikka katta e'tibor qaratilgan. Yuqoridagi mutafakkirlar ham islom ma'rifati bilan uyg'un holda o'z ilmiy qarashlarini ilgari surishgan. Shu o'rinda aytish mumkinki, islomda oila qurish va nikohning asosiy maqsadi insonning naslu-nasabi davomli va barqaror qolishi uchun dunyoga solih va soliha farzandlar keltirilishdirki, ular sababidan dunyo va oxiratimiz obod va barqaror bo'ladi. "Anisul-voizin" da keltirildirki: "Nikohdan maqsad dunyoning barqarorligi uchun solih va soliha farzandlar qoldirmoq va Mavlo taoloning hikmatli ishlariga sabab bo'lmoq va shu bilan Alloh taoloning roziligiga erishmoqdir" Ma'lumki, farzandni to'qqiz oy qornida ko'tarib yurish va uni dunyoga keltirish uchun onalar qancha ranju mashaqqat chekadilar. Rivoyatlarga kelganki, Alloh taolo ayollar uchun chekadigan mashaqqatlari evaziga bandalaridagi har bir tomiri hisobida ular uchun yetmish yillik ro'za va namozni savobini ato etar ekan. Darhaqiqat onalar bu mukofotga sazovor zotdirlar zero ular farzandni dunyoga sihat va salomat keltirmoq uchun hatto jonlarini ham xavfga qoldirishga rozi bo'ladilar"[4, 24].

Reproduktiv salomatlik borasida jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat ham kerakli fikr-mulohazalarni berib o'tgan. Fitratning "Oila va oila boshqarish tartiblari" nomli risolasida ushbu masalaga to'xtalib o'tganalar. Xususan, "Bo'lajak er-xotin birinchi navbatda nimalarga ahamiyat bersin?", "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida", "Oilaning maishati va idorasi", "Iffat va mo'minlik", "Visol", "Homiladorlik davri" kabi bo'limlarida aynan erkak va ayollarning

jismoniy va ma'naviy o'rni haqida so'z boradi. Allomaning quyidagi fikrlari shular jumlasidandir "Men arz qilgan edimki, er-xotinlikning birinchi maqsadi farzanddir. Bu maqsadga erishishning vositasi va sababi visoldir. Lekin sog'liqni saqlash qoidalarini bilmagan ba'zi odamlar visol jarayonini shunday o'tkazadilarki, farsandsizlikka olib keladi. Shuning uchun fursati kelganda shu xususda zamonamiz olimlari va hakimlarining fikrlarini arz qilmoqchiman. Hakimlar inson umrini sakkiz davrga taqsim qilganlar:

- Go'daklik davri.
- Bolalik davri.
- Balog'at davri.
- Rivojlanish davri.
- Kamolot davri.
- Nihoyat davri.
- Birinchi qarilik davri.
- Ikkinchi qarilik davri.

Go'daklik davri tug'ilishdan sakkiz yoshgacha davom etadi. Bu davrda odam a'zolari rivojlanadi va shahvoniy his ma'lum bo'lmaydi. Bolalik davri sakkiz yoshdan o'n to'rt yoshgachadir. Bu davrining so'ngiga kelib shahvoniy his ko'rina boshlaydi. Balog'at davri o'n to'rt yoshdan yigirma yoshgacha. Bu davrda urug' hosil bo'lganidan shahvoniy his ziyoda bo'ladi. Lekin tanosil a'zolari va nutfa moddasi kamol darajasiga yetmaydi. Shuning uchun bu yoshda uylanganda, natija yo samara beramaydi yoki olamga kelgan farzand nogiron, zaif va kamquvvat bo'ladi. Binobarin, hakimlar erkaklarga 23 va qizlarga 18 yoshdan oldin uylanmaslikni maslahat beradilar. Aytishlaricha bu yoshdan oldin uylanishda bir necha zarar bor. Birinchidan, erkakaning aqlu zakovati kamol darajasiga yetmagan, maishat ishlari va oila tebratishda ojizlik qiladi. Ikkinchidan, bu yoshda yosh eru xotinning aqlu irodalari komil bo'lmaganidan aksar shahvoniy hisga berilib, visolning suiste'molligiga berilib, umrlarining asosini nobud qiladilar. Uchinchidan, bu yoshda badan a'zolari va urug' moddasi hali yetilmagani uchun farzand ko'rmaydilar. To'rtinchidan, farzand olamga kelsa ham zaif va kamquvvat bo'ladi, uzoq yashamasligi mumkin. Beshinchidan, bu yoshda ayol homilador bo'lib qolsa, yoshligi tufayli kuchsizlanib qoladi, jismi rivojlanishdan to'xtashi mumkin" [1, 250].

Fitratning yuqorida keltirgan fikrlari bevosita oilaning ertangi taqdiri aynan er-xotinning fizilogik holatiga chambarchas bog'liqligini yana bir bora isbotlab beradi. Yana bir jihati, Allomaning har bir mulohazani Qur'oni Karim va hadislar bilan

sharhlab borishidadir, har bir tahlil etilayotgan masala aynan islom fiqhiy manbalari bilan asoslantirilganidir.

## XULOSA

Darhaqiqat, kuzatishlar natijasida oilada asosan ayollarning salomatligi masalasi hamisha muammoli masalalar sirasiga kirib kelgan. Negaki, ayol – bu ona, rafika, opa-singil va oilaning ertangi naslini davom ettiruvchi shaxsdir. Shunday ekan, uning salomatligi, ayniqsa reproduktiv salomatligi masalasi hamisha ahamiyatli bo'lishi lozim. Bu borada islom dinida ham ko'plab nasihat va hikmatlar berilgan. Inson hamisha muammolarning asl yechimini topishga harakat qilib keladi, bu o'rinda tajribalarni o'rganish va ularga ergashish ham yaxshi samara berishi shubhasizdir. Ayniqsa, turmush qurish ostonasidagi har bir yosh avlod o'zining eng muhim ne'mati hisoblanuvchi reproduktiv salomatligi haqida hamisha qayg'urishi va bu boradagi tarixiy o'gitlarga ham quloq tutishi lozim. Ma'lumki, o'tmishda yashab o'tgan allomalarimiz o'z qarashlarida har bir jihatga alohida e'tibor qaratganlar, oilaviy munosabatlar borasida ham, salomatlik borasidagi mulohazalaridan ham bugungi kunimiz uchun kerakli javobni olishimiz aniq, negaki ular fikrlarini har bir zamonga mos jihatlari bisyor. Shunday ekan, uni o'rganish, tahlil etish va keraklisi qabul qila olish ham bir mahoratdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006. – 336 b.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari / Alixon Sog'uniiy va Xabibullo Karomatov tarjimas. – Toshkent: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 2018. – 184 b.
3. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoi saodat. – T. "Adolat". 2005. – B 25.
4. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar: Uslubiy qo'llanma / Xoliqova, M., . Ishanxanova, G., Po'latova Sh. – Toshkent: "Akademnashr", 2021. – 208 b.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadig'u bilig. – Toshkent: "Yulduzcha" 1990. – 192 b.
6. Yusupova N.J., Mamadiyev B.B., Xaydarov M.M. Islomda gender tenglik tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari: qo'llanma. – Toshkent., Baktriapress, 2022. – B 144.
7. Arziqulov R. So'g'lom turmush tarzi asoslari: o'quv qo'llanma. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" – 2009. – B. 240.